

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MILLIY LIBOS VA SAN'AT FAKULTETI

TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI
TEXNOLOGIYA TA'LIMI METODIKASI
FANIDAN

O'QUV - USLUBIY MAJMUA

TERMIZ - 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MILLIY LIBOS VA SAN'AT FAKULTETI

TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI
TEXNOLOGIYA TA'LIMI METODIKASI
FANIDAN

O'QUV - USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5112100 – Texnologik ta'lim

TERMIZ - 2023

Ushbu o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 1 martdagi "Yangi o'quv-uslubiy majmualarini tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmani tavsiya etish to'g'risida"gi № 107 – sonli buyrug'i asosida tayyorlandi.

Mazkur fanda tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Ushbu ma'ruzalar matni 27 avgust 2023 yil Termiz davlat universiteti O'quv - uslubiy kengashining №1 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fanning o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan Texnologik ta'limyo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: Z.Sh.Nurmamatov "Texnologik ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi p.f.f.d.(PhD)

Taqrizchilar: Sh.B.Ochilov. Navoiy davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedrasida mudiri, p.f.f.d.(PhD), dotsenti.

R.M.Haydarov. "Texnologik ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Ushbu o'quv uslubiy majmua kafedraning 2023 yil 28.06.21-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Ushbu o'quv uslubiy majmua TerDU ilmiy Kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan. 30.06.2023 yil №11 bayonnoma

TerDU O'quv uslubiy majmua 2023 yil

Mundarija

№	Bo'limlar	betlar
1	O'MMning kelishilgan varag'i	
2	O'MMning mundarajasi	
3	Ma'ruza mashg'ulotlar mazmuni	
1	Xalq hunarmandchiligi texnologiyasini bo'limini o'qitish metodikasi.	
2	Yo'nalishlar bo'yicha materialshunoslik bo'limini o'qitish metodikasi.	
3	O'quv ustaxonasini tashkil etish va jihozlash.	
4	Texnologiya fanida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash.	
5	Texnologiya faniga oid metodik ishlar.	
6	Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish.	
7	Texnologiya fani dars jarayonida tarbiya.	
4	Amaliy mashg'ulotlari mavzulari.	
1	Qo'l ishlari haqida umumiy ma'lumot va ish o'rniga qo'yiladigan talablar mavzusiga dars rejasini tuzush va o'tqazish. Bichish va tikish haqida ma'lumot.	
2	Gvdadan o'lchov olish. Fartuk va bog'ichli qalpoqcha chizmasini chizish mavzusiga dars rejasini tuzush va o'tqazish.	
3	Xalq hunarmandchiligi to'g'risida umumiy ma'lumot. Kashtachilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar mavzusiga dars rejasini tuzish va o'tqazish.	
4	Kashtachilik ranglari va rang tanlash. Kashtachilikda ishlatiladigan choklardan naqshlar tikish.	
5	Yorma choki, ilma choki, bahiya choki mavzusiga dars rejasini tuzush va o'tqazish. Oyoq yurituvli tikuv mashinalarining	

	tuzulishi. Ishlash prinsipi mavzusiga dars rejasini tuzush va o'tqazish.	
6	Yupka andazasini modellashtirish. Yupka uchun qancha gazlamani ketishini hisoblash mavzusiga dars rejasini tuzush va o'tqazish.	
7	Mahsulotlarga issiqlik ishlov berish usullari mavzusiga dars rejasini tuzush va o'tqazish. O'zbek milliy taomlaridan suyuq ovqatlar tayyorlash mavzusiga dars rejasini tuzush va o'tqazish.	
8	Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishlash xonalari uchun sanitariya gigiena talablari mavzusiga dars rejasini tuzush va o'tqazish. Nonushta, peshin, kechki ovqatlanish uchun dasturxon tuzush mavzusiga dars rejasini tuzush va o'tqazish.	
5	Ilovalar	
6	Fan dasturi	
7	Syllabus	
8	Glossariy	
9	Nazorat savollari	
10	Foydalanilgan adabiyotlar	

5 modul. Texnologiya fanini bo‘limlar bo‘yicha darslarni tashkil etish o‘qitish metodikasi.

1-2-Mavzu: Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi bo‘limini o‘qitish metodikasi

Reja:

1. Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan materiallarni o'rgatish metodikasi.
2. Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob - uskunalar.
3. Xalq hunarmandchiligi usullarini o'rgatish va buyum tayyorlash.

Tayanch iboralar: Hunarmandchilik, Xalq hunarmandchiligi, Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi. Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob –uskunalar. Xalq hunarmandchiligi usullari. Buyum tayyorlash.

Respublikamizda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirish borasida yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida hunarmandchilik faoliyati kundan kunga rivojlanib, ularning mahsulotlari yeksportga chiqarilmokda. 1997 yil 31 martda qabul qilingan “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ulkan o‘zgarishlarda muhim dasturilamal bo‘lmoqda. Mazkur farmonga muvofiq tashkil etilgan “Hunarmand” uyushmasi xalq amaliy san'atining asriy an‘analari asosida faoliyat ko‘rsatayotgan musavvirlar, xalq ustalari va hunarmandlarni birlashtirdi. olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasida yurtimizda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati ham izchil rivojlanmoqda. Davlatimiz rahbarining 1997 yil 31 martda qabul qilingan “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ulkan o‘zgarishlarda muhim dasturilamal bo‘lmoqda. Mazkur farmonga muvofiq tashkil etilgan “Hunarmand” uyushmasi xalq amaliy san'atining asriy an‘analari asosida faoliyat ko‘rsatayotgan musavvirlar, xalq ustalari va hunarmandlarni birlashtirdi. o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 30 martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PF-4210-sonli farmonida uy sharoitida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini ishlab chiqarish bo‘yicha «Hunarmand» uyushmasi a‘zolari - yakka tartibdagi tadbirkorlarga belgilangan qat’iy soliqni to‘lash bo‘yicha soliq imtiyozining amal qilish muddati o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda PF-4399-sonli farmoniga asosan 2014 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirildi.

Oliy ta’limning asosiy vazifasi mehnat bozorining uzluksiz ravishda o‘sib borayotgan ehtiyojlariga muvofiq shuningdek, mutaxassisning aniq kasbiy malaka darajasiga yuqori talablar qo‘yuvchi bozor iqtisodiyotiga o‘tilishini hisobga olib, yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Bugun o‘zbek ustalarining ijodiy ishlari yurtimiz va xorijdagi ko‘plab nufuzli ko‘rgazmalarda muntazam namoyish etilib, ko‘plab xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘lmoqda. Bularning barchasi davlatimiz tomonidan milliy hunarmandchilikni

rivojlantirish borasida yaratilgan ulkan shart-sharoitning amaliy natijasidir. Bunyodkorlik – ulug‘ ajdodlarimizdan meros qadriyat. Shahar va qishloqlarimiz ko‘rkiga-ko‘rk qo‘shib turgan muhtasham imoratlarning qad rostlashi, tarixiy obidalarining qayta tiklanishi va muqaddas qadamjolarining obod etilishida mamlakatimiz hunarmandlarining ham munosib hissasi bor. Ular yaratgan milliy va zamonaviy san‘at uyg‘unligidagi bezak, naqsh va miniatyuralar bugun xorijiy mehmonlarni hayratga solsa, yurtdoshlarimiz qalbidagi faxru iftixorni oshiradi. o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3588-sonli farmoni bilan tasdiqlangan hunarmandchilikning asosiy quyidagi 25 ta faoliyat turi ro‘yxati asosida qo‘llaniladi.

1. Ganch o‘ymakorligi;
2. Yog‘och o‘ymakorligi;
3. Suyak o‘ymakorligi;
4. Tosh o‘ymakorligi;
5. Yog‘ochdan xalq hunarmandchiligi buyumlari yasash;
6. Metall va tunukadan buyumlar yasash;
7. Qilich, xanjar va pichoq yasash;
8. Zarb, o‘yma tasvir (chekanka) usulda yasalgan buyumlar;
9. Chinni (farfor), sopol va ganchdan buyumlar yasash;
10. Qimmatbaho metallardan zargarlik buyumlari yasash;
11. Qo‘lda gilam to‘qish;
12. Qo‘lda gazlama va to‘qma buyumlar to‘qish;
13. Shisha buyumlar tayyorlash;
14. Zardo‘zlik buyumlari tikish;
15. Kashtachilik, kashtado‘zlik;
16. Matoga gul bosish va chokli buyumlar tikish;
17. Milliy xalat (chopon) va bosh kiyimlar tayyorlash;
18. Musiqqa asboblari yasash;
19. Miniatyurali, rasmlı (tasvirli), ornamentli (naqshli) va sirli bezaklar berish;
20. Hajmli va figurali (shakldor) qolipli (andozali) quyma buyumlar yasash;
21. Kichik haykalchalar yasash;
22. o‘yinchoqlar yasash;
23. Novdalardan buyumlar to‘qish;
24. Teridan buyumlar va oyoq kiyimlari tikish;
25. Sovg‘a (suvenir) yesdalik buyumlari tayyorlash;

Kishilik jamiyati shakllanganidan buyon insonlar o‘zlarining hayotiy mehnat tajribalarini yosh avlodiga o‘rgatib keladi. Qulay yashash uchun boshpanalar tayyorlash, tosh, suyak, bronza (jezdan) keyinchalik esa, temir (po‘lat) dan turli xil mehnat qurollari, moslamalari tayyorlash, chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi ham turli maqsadli faoliyatlarning, ya’ni, kasb-hunarlarining taraqqiy etishiga sabab bo‘ladi. Kichik qabilalarining kengayib, yirik xalqlarga, yelatlariga aylanishi, mayda davlatlarning turli hududlar uchun qo‘shni mamlakatlarga hujum qilishlari urush harakatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Urush harakatlarida esa hujum va himoya qurollari, moslamalari,

qurilmalari, jang qurollarining, askarlar va lashkarboshilarning kiyimlari, jihozlarining ko‘plab tayyorlanishiga va qullanishiga xilma-xil ehtiyojlarni keltirib chiqardi. Tarixning ko‘hna sarvaraqlarida turli mehnat qurollari, urush anjomlari, hujum va himoya jihozlarini mohir hunarmandlar, kasb-hunarlar sulolalari vakillari tayyorlaganlar. Xalq hunarmandchiligining hozirda 150-180 xildan ziyod turlari saqlanib qolgan va rivojlanayotgan bo‘lsada, sovutchilik, nalchilik, rextagarlik kabi turlari deyarli yo‘qolib bormoqda. Hunarmandchilikning kulolchilik, temirchilik, sandiqsozlik, beshikchilik, turli xil milliy matolar (beqasam, adras, atlas va boshqa) to‘quvchilik, pichoqchilik, ko‘nchilik, kashtachilik, zardo‘zlik kabi ko‘plab sohalari uzoq davrlardan buyon rivojlanib kelgan va hozirda ham taraqqiy etmoqda. Ushbu hunarlarning rivojlanishida ustoz-shogirdlik tizimining o‘rni, ahamiyati katta bo‘lib, bu tizim asrlar davomida shakllangan va rivojlangan. Ustoz hunarmand o‘z tajribalarini, hunarlar sir-asrorlarini nisbatan uzoq vaqt mobaynida (10-14 yil) shogirdlariga o‘rgatib borganlar, bu ishda ularga tajribali shogirdlari-xalfalar yordam berganlar. Ota-onalar, vositalar o‘z farzandlarini ustaga “yeti sizniki, suyagi bizniki” degan naql asosida belgilangan vaqt davomida shogirdlikka olib kelib berganlar. Bunday ustoz-shogirdlik tizimida o‘rgatishni va o‘rganishning asosiy uslublari shaxsiy namuna ko‘rsatish, tinimsiz mehnat (mashq) qilish bo‘lgan. Ulug‘ mutafakkir allomalar ham o‘zlariga ilm yo‘lida shogird tanlashlarida avvalo, bo‘lg‘usi shogirdning biror kasb-hunari bor-yo‘qligini, surishtirganlar. Agar bo‘lg‘usi shogird hunar sohibi bo‘lsa, uni shogirdlikka qabul qilinganlar, agar hunari bo‘lmasa, avvalo “hunar o‘rgangach, so‘ngra ilm o‘rganasan, chunki, hunar hayot borliq tashvishi, ilm esa abadiyat, oxirat ramzidir” deganlar.

Juda ko‘p mutafakkirlar, allomalar kasb-hunar egalari bo‘lganlar, masalan, Pahlavon Mahmud-po‘stindo‘z, shoir Javhariy-sovungar, shoir mavlono Xavofiy-tikuvchi, shoir mir Arg‘un Hamado‘z-chodirdo‘z, mavlono Qobuliy Gazalfurush-kalavachi, mavlono Kamardo‘z-tasmado‘z, Bisotiy Samarqandiy-bo‘yrado‘z bo‘lganlar. Chunki, ular kasb-hunar orqali halol mehnat qilib, ro‘zg‘orini boqsalar, ilm, tariqat, tafakkur orqali abadiyat sari qadam tashlaganlar. So‘fiylik tariqatining asoschilaridan hisoblangan Bahouddin Naqshbandiy hazratlari “Dil-ba yoru, dast-ba kor” (qo‘ling mehnatda-yu, qalbing Ollohda bo‘lsin) deb ta’kidlaganlar. Sharq xalqlarining qadimiy yodgorliklaridan hisoblangan “Avesto” da “Yaxshilik va yezgulik yaratish uchun kishi, mehnat qilishi, o‘z qo‘llari bilan moddiy ne‘matlar yaratmog‘i lozim” deyiladi. Jumladan, islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan “Qur‘oni Karim” da ham, uning oyatlarini, suralari mohiyatini xalq orasida targ‘ib qilish uchun yaratilgan hadisi shariflarda ham halol mehnat, kasb-hunarlarni egallash afzalligi uqtirilgan.

Jumladan, buyuk muhaddis (hadisshunos) Xoja Ismoil, Imom al Buxoriyning “Al-jomi’ as-sahih” (Ishonarli to‘plam) asarining “Savdo-sotiq kitobi”da shunday deyiladi: “Oysha raziyallohu anho rivoyat qiladilar: Rasulloh salallohu alayhi vassallam: “Mening sahobalarim o‘z kasblari (mehnatlari) bilan tirikchilik qilurlar”-debilar Shuningdek, ushbu to‘plamning 2-qismida 19-bob go‘sht sotuvchi va qassob haqida, 26-bob bo‘yoqchi haqida, 27-bob temirchi haqida, 29-bob to‘quvchi haqida 30-bob duradgor haqida kitoblari mavjuddir. Mehnat va kasb-

hunarlarni o'rganish afzalligi, tamoyillari, tartib-qoidalari to'g'risida juda ko'plab mutafakkir, donishmandlarning tarixiy asarlarida, me'roslarida bayon etilgan. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha ta'lim muassasalarida, oilada, mahalla jamoatchilikda, barcha sohalarida yoshlarga kasb-hunarlar aqidalarini o'rgatib borish zarur bo'ladi. Kasb-hunarlar risolalari hunar kishisi fazilatlarini, tartibi, odobi majmuasi pirlari, mashoyixlari, muqaddas qoidalari to'g'risida tinimsiz izlanishlar olib borish, tadqiqotlar natijalarini yoshlarga o'rgatib singdirib borish har bir ustoz, murabbiyning hozirgi davrdagi dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

3-Mavzu: Yo'nalishlar bo'yicha materialshunoslik bo'limini o'qitish metodikasi.

Reja:

1. "Servis xizmati" yo'nalishi bo'yicha materialshunoslik bo'limini o'qitish metodikasi.
2. "Texnologiya va dizayn" yo'nalishi bo'yicha materialshunoslik bo'limini o'qitish metodikasi.
3. Materiallarning olinishi va materiallarning xossalari.
4. Materiallarning xususiyatlarini o'qitish metodikasi.

Tayanch iboralar: Servis xizmati. Materialshunoslik. Texnologiya va dizayn. Materiallarning olinishi. Materiallarning xossalari. Materiallarning xususiyatlariyu Materiallarning turlari

Arra bilan metallni kesish quyidagicha amalga oshirilishi kerak.

Kesiladigan material ishlanayotgan paytda surilib yoki sakrab ketmasligi uchun uni tiskiga mahkam qistirib qo'yiladi (1-rasm).

Kesiladigan materialning qattiqligi, o'lchami va shakliga qarab tishlarining kattaligi bo'yicha tegishli arra polotnosi tanlanadi.



Чилангарлик арраси билан ишлашда гавда ва қўлларнинг ҳолати.

Bu ishni bajarishda ham metallarni qirqishdagi kabi holatda turiladi. Ishlayotganda arrani ikki qo'l bilan ushlanadi va kesilayotgan tekislikka parallel holatda tutib, sakratmay hamda siltamay bir maromda yurgiziladi. Har bir yurishda arra polotnosi uzunligining eng kamida 2/3qismi ishlashi shart.

Arra polotnosining tishlari tez o'tmaslashib qolmasligi uchun ishlovchi uni qarshi tomonga yurgizishda (ishni bajarishda) bosib, orqaga qaytarishda (salt

yurishida) bo'shatib turishi lozim. Arra bilan qo'lda kesishdan tezlik har daqiqada eng kami 30 dan 60 martagacha juft yurishdan iborat bo'lishi kerak.

Tavsiya etilayotgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:

- ✓ o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- ✓ muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhviy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- ✓ nazariy va amaliy, hamda ishlab chiqarish ta'limini tashkil qilishning asosiy shakllarini egallash;
- ✓ Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, xo'jalik yuritishning yangi shakllarni va ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish malakalarini egallash;
- ✓ mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash.

Servis xizmati yo'nalishida: oziq-ovqat mahsulotlariga birlamchi ishlov berish usullari, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishlaganda foydalaniladigan jihozlar, asbob-uskunalar va moslamalardan foydalanish tartibi o'rgatiladi. Gazlamalarga ishlov berishda qo'l ishlari haqida ma'lumot, foydalaniladigan asbob va moslamalar, ulardan foydalanish tartibi, sanitariya gigiena va texnika xavfsizlik talablarini o'rgatiladi. **Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi. Mehnat ta'limida materialshunoslik bo'limining mazmuni.**

Texnologiya va dizayn yo'nalishida: asbob-uskunalar va ularni ishlatishni o'rganish bo'limiga 24 soat ajratilgan bo'lib, o'quvchilarga metallga, yog'ochga, gazlamaga va oziq ovqat mahsulotlariga ishlov berishda foydalaniladigan asbob-uskunalarining turlari, ulardan foydalanish texnika xavfsizligi va sanitariya gigiena talablari, o'lchash va rejalash asboblaridan foydalanish tartibi o'rgatiladi.. rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l va elektr asboblarining tuzilishi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Mashina, mexanizm, stanoklar bo'limiga har bir yo'nalishlarda 5-7 sinflarda 6soatdan ajratilgana bo'lib unda yo'nalishlar bo'yicha ishlatiladigan mashinalar va jixozlarning turlari, ishlash prinsiplari, asosiy mexanizmlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Texnologiya va dizayn yo'nalishida: stanok va mashinalarni ishga tayyorlash va ishlash qoidalari, texnika xavfsizlik talablari bilib oladilar. Mashina va stanoklarning kichik nosozliklarini bartaraf etish tartibi bilan tanishadilar. yo'nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l va elektr asboblarining tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, stanoklar, yarim avtomat va avtomatlar tuzilishi hamda ishlash prinsipi to'g'risida umumiy tushunchalar chilangarlik sandonida, tokarlik, vint qirqish, frezalash stanoklarida silindr va konus shaklidagi detallarga ishlov berish

Mehnat ta'limi DTS talablariga asosan barcha yo'nalishlarda materialshunoslik bo'limi o'qitiladi. Mehnat ta'limi o'quv rejasiga asosan materialshunoslik bo'limida har bir yo'nalishda foydalaniladigan materiallarning

tarkibi, ularning olinishi, ularning qo'llanilish sohasi va ulardan buyum tayyorlashdagi xususiy tomonlari, xususiyatlari o'rgatiladi.

Texnologiya va dizayn yo'nalishida: o'quvchilar turli materiallar (yog'och, metall, Qog'oz, shisha, plastmassa va boshqalar)ning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar. Metal va yog'ochlarning turmushda va xalq ho'jaligida

Servis xizmati yo'nalishida: o'quvchilar gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi materialshunoslik bo'limida gazlama turlari, xususiyatlari, ularga ishlov berishni o'rganadilar.

Pazandachilik asoslari bo'limida respublikada etishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining turlari, navlari, sifatiga bo'lgan talablari, turli oziq-ovqat mahsulotlariga birlamchi ishlov berish jarayoni, oziq-ovqat mahsulotlarining hamda taomlarning inson hayotidagi o'rni, xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va to'yimlilikini, ovqatlanish meyor va tartibi, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash sharoiti va muddatlarini bilan tanishadilar

Pazandachilik asoslari. Qishloq xo'jaligi asoslari va boshqalar.

Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida yangi pedagogik

Texnologiyalarni qo'llash. Pedagogik texnologiyalarning paydo bo'lishi XX asrning ikkinchi yarmida jamiyatda kechib o'tgan fan-texnika revolyusiyasi natijalari bi-lan bog'liq. Kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi 3 – 4 asri mobaynida bir qator buyuk ilmiy va texnikaviy kashfiyotlarga erishildi. Bu g'alabalar mikrokosmos (elektronika) va makrokosmos (koinot) ning o'zlashtirilishida o'zining yorqin ifodasini topdi. Fan-texnika revolyu-siyasining natijalari odamlar ongida o'zlikni, jamiyatni, atrof-muhit va olamni anglashda ulkan o'zgarishlar sodir etdi. Bu o'zgarishlar minglab yillar mobaynida inson turmush tarzining muhim qismlaridan biri bo'lib xizmat qilib kelayotgan ta'lim-tarbiya tizimi an'analariga nisbatan ham o'z munosabatlarimizni o'zgartirish lozimligini taqozo yetdi. Xususan:

- fan-texnika taraqqiyotining beto'xtov rivojlanib borishi jarayo-nida axborotlar keskin ko'paydi, lekin ularni o'quvchilarga o'zlashtirish uchun vaqt chegaralanganligicha qoldi;

- an'anaviy ta'lim-tarbiya tizimining yozma va og'zaki so'zlargagi-na tayanib ish tutishi ta'lim-tarbiya jarayonining tashkilotchisidek sha-rafli kasb egasi bo'lmish o'qituvchi faoliyatini «axborotli o'qitish» fa-oliyatining mexanizmiga aylantirib qo'ydi, o'qituvchi o'quv jarayonining tashkilotchisidan ko'ra ko'proq keragidan ziyod bilimlar manbaiga ayla-nishga majbur bo'lib qoldi;

- kishilik jamiyati an'anaviy – nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan yangicha – foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'ta boshladi va h.k.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyalar (bu yerda «texnologiya» so'zi yunoncha – «techné» – mahorat, san'at va «logos» – fan, ta'limot so'z-laridan tashkil topgan) jamiyatda va kishilar ongida sodir bo'lib o'tayotgan ana shunday o'zgarishlarni hisobga olgan holda an'anaviy ta'lim-tarbiya tizimiga insonning o'z munosabatlarini o'zgartirishi asosida paydo bo'ldi.

Har qanday texnologiyaga xos bo'lganidek, pedagogik texnologiyalarga

ko'zlangan natijalarga erishishni va pedagogik jarayonning va pedagogik natijalarning qayta takrorlanuvchanligini kafolatlovchi yaxlit tizimlilik xosdir. Ana shunday xususiyatlarga ega qilish yo'lida amaldagi ta'lim-tarbiya tizimini pedagoglar o'rtasida quyidagidek yo'nalishlar bo'yicha tubdan isloh yetib chiqish ishi boshlanib ketdi:

- ta'lim-tarbiya jarayonining natijalarini maqsadlar shaklida ol-dindand belgilab qo'yish;

- har bir maqsad natijasini qat'iy belgilash;

- o'qituvchi va o'quvchining pedagogik maqsadlarini birma-bir o'zaro moslashtirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini yuksak saviyada aniq qismlarga ajratish, o'quvchi faoliyatini algoritmflash;

- baholash mezonlari haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga oldindand yetkazib qo'yish;

- yakuniy baholash maqsadlari majmuasining ta'lim-tarbiya jarayoni ti-zimi maqsadlari bilan to'liq muvofiq bo'lishligini ta'minlash;

- ta'lim-tarbiya jarayonining oraliq maqsadlar bo'yicha bo'laklarga bo'linganligiga va bu maqsadlarning yakuniy natijalar bilan muvofiq-lashtirilganligiga erishish;

- oraliq baholashlarda o'quvchi erishgan natijalarning aniq va pi-shiq bo'lishligiga erishish;

- ta'lim-tarbiya jarayoni bosqichlarini tahrirlashda joriy baholash natijalaridan vosita sifatida keng foydalanish;

- jarayonni tahrir etishda uning o'quvchi yo'l qo'yayotgan xatoliklarga emas, balki har bir o'quvchiga nisbatan uyushtirilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish usulini o'zgartirishga yo'naltirilgan bo'lishli-giga erishish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish usulini tanlash va uni al-mashtiraverish mumkinligi erishish;

- ta'lim-tarbiya jarayoniga interaktiv usullarini kengroq jalb etish;

- ta'lim-tarbiya jarayoni uchun yoqimli psixologik muhit yaratish;

- pedagogik jarayonning purra va yakunlangan bo'lishligiga erishish.

Bunga o'xshash masalalarni hal etishda XX asrning 70 – 80-yillarida, ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlarining pedagog-olimlari juda katta yutuqlarga erishishdi. Ular ishlab chiqqan va keng ko'lhamda sinab ko'rish mobaynida amalda o'zini har tomonlama oqlagan bir qator pedagogik tex-nologiyalar bugungi kunda barcha rivojlangan mamlakatlarga tarqalishga ulgurdi. Pedagogik texnologiya g'oyasi nufuzli xalqaro tashkilot – YuNESKO tomonidan tan olinib, qo'llab-quvvatlandi. Pedagogik texnologiya tarixi, kelib chiqishi nazariyasi.

Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, «pedagogik texnologiyalar» ni pedagogning tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda o'qitish vositalari yordamida ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun za-rur bo'lgan va oldindand belgilab qo'yilgan ijtimoiy sifatlarni jadal tarzda shakllantiruvchi jarayon deb ta'riflash mumkin.

YuNESKO ta'rifi (1998 y.): «Pedagogik texnologiya – o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yuvchi, texnik hamda shaxs resurslari va

ularning o'zaro faoliyatini hisobga olgan holda ta'lim berish va tahsil olish jarayonini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir».

Bir guruh o'zbek pedagog olimlari tomonidan ijodiy hamkorlikda ishlab chiqilib, taklif etilgan ta'rif (2008 y.): «Pedagogik texnologiya – ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilgan, demokratik hamda takror-lanuvchan o'qish natijalarini kafolatlaydigan ta'lim jarayonini loyihalash, (modellash), amalga oshirish va baholashning tizi-miy metodidir».

Shu o'rinda o'zbek pedagog olimlari tomonidan taklif etilgan ta'-rifdagi pedagogik texnologiyalarga xos «ta'lim oluvchi shaxsiga yo'nal-tirilgan» va «*demokratik*» sifatleri ustida qisqacha to'xtab o'tish joizdir.

Shaxsiga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarda tahsil oluvchi shaxsi ta'lim jarayoni markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko'rsatilganidagi, o'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi modeli besh tarkibiy qismdan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Bu yerda ta'lim tizimi milliy modelining asosiy tarkibiy qismi sifatida «shaxs» birinchi o'rinda turadi. Boshqacha qilib aytganda butun ta'lim tizimi, shu jumladan butun pedagogik jarayon o'qitishning shaxsiga yo'nal-tirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Shaxsiga yangicha qarash, an'analardagidek o'qituvchi shaxsining yakkeyu yagona subektligidan farqli ravishda, quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonida shaxs obekt emas, subekt hisoblanadi;
- har bir tahsil oluvchi qobiliyat egasi, ko'pchilik esa iste'dod egasi hisoblanadi;
- yuksak yetik qadriyatlar (oliyjanoblik, bag'ri kenglik, mehribon-lik, samimiylik, mehnatsevarlik, vijdonlilik va boshqalar) shaxsning ustuvor fazilatlari hisoblanadi.

Shaxsiga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar ayrim nozik jihat-lariga qarab yana quyidagidek nomlar ostida ham yuritiladi: insonpar-var-shaxsparvar texnologiyalar (psixoterapevtik mohiyatga urg'u beri-ladi), hamkorlik texnologiyalari (o'qituvchi va o'quvchilarning teppa-teng huquqlar egalari ekanliklariga urg'u beriladi), erkin tarbiya texnologiyalari (o'quvchining tabiiy rivojlanishi yo'lida unga kengerkinlik beriladi), yezoterik texnologiyalar (bunday texnologiyalarda pedagogik jarayon Haqiqat haqida ma'lumot berish yoki Haqiqat bilan muloqotda bo'lish deb emas, balki Haqiqat ichiga g'arq bo'lish deb tushuniladi).

4-Mavzu: O'quv ustaxonasini tashkil etish va jihozlash

Reja:

1. Mehnatni ilmiy tashkil etish.
2. O'qituvchi va o'quvchining ish o'rni.
3. Asbob-uskuna va moslamalar.
4. Sanitariya-gigiena va texnika xavfsizligi talablari.

Tayanch iboralar: Ustaxona. Asboblar. Texnika xavfsizligi. Jihozlar. Asbob-uskuna va moslamalar.

O'qituvchining III-bosqichda ish unumdorligi pasayib, charchash holati vujudga keladi.

Texnik modellashtirish jarayonida talabalar har xil asbob-uskunalar, moslamalar, shuningdek, elektr jihozlar bilan ishlashni nazarda tutib, pedagog o'z ustaxonasida baxtsiz hodisalarning oldini olishga doir barcha chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

O'quv ustaxonasidagi mehnat sharoiti sanitariya-gigiena va xavfsizlik texnikasining barcha talablariga to'la javob berishi kerak. Dasturidagi barcha modellari emas, balki texnik ijodkorlikni ham o'rganish uchun zarur sharoit bilan ta'minlanishi lozim.

1. Turli buyurtmalarni bajarishda pedagogning o'quvchilar bilan olib boradigan umumiy guruhli hamda brigada-zvenoli ishlari uchun ham sharoit yaratilishi zarur.

2. Har bir talabaga kerakli asbob-uskunalar va moslamalar bilan ta'minlangan alohida ish o'rni ajratilishi lozim.

3. Pedagog uchun tegishli jihozlar, asboblar, moslamalar bilan ta'minlangan va poldan 250-300 mm ko'tarilgan namunali ish o'rni tashkil etilishi lozim.

O'quvchining ish o'rni. Fiziologik, psixologik nuqtai nazardan olib qaraganda, kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni tahsil oluvchilarning o'sib-rivojlanayotgan organizmi uchun sezilarli yuklanish beradi. Shuning uchun ham o'quv rejimini yuqori ish qobiliyatini ta'minlaydigan, tahsil oluvchi sog'ligiga zarar yetkazmaydigan qilib tashkil etiladi. Tahsil oluvchilarning ish rejimini belgilashda ish qobiliyatini quyidagi bosqichlari inobatga olinadi:

I-bosqichda tahsil oluvchi vazifani olib, ishga kirishadi, asta-sekinlik bilan mehnat unumdorlik oshib boradi;

II-bosqichda yuqori unumdorlikka erishiladi;

III-bosqichda ish unumdorligi pasayib, charchash holati vujudga keladi.

Texnik modellashtirish jarayonida talabalar har xil asbob-uskunalar, moslamalar, shuningdek, elektr jihozlar bilan ishlashni nazarda tutib, pedagog o'z ustaxonasida baxtsiz hodisalarning oldini olishga doir barcha chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

O'quv ustaxonasidagi mehnat sharoiti sanitariya-gigiena va xavfsizlik texnikasining barcha talablariga to'la javob berishi kerak. Dasturibagi barcha modellari emas, balki texnik ijodkorlikni ham o'rganish uchun zarur sharoit bilan ta'minlanishi lozim.

1. Turli buyurtmalarni bajarishda pedagogning o'rganuvchilar bilan olib boradigan umumiy gruppaviy hamda brigada-zvenoli va patakli ishlari uchun ham sharoit yaratilishi zarur.

2. Har bir talabaga kerakli asbob-uskunalar va moslamalar bilan ta'minlangan alohida ish o'rni ajratilishi lozim.

3. Pedagog uchun tegishli jihozlar, asboblar, moslamalar bilan ta'minlangan va poldan 250-300 mm ko'tarilgan namunali ish o'rni tashkil etilishi lozim.

4. Ustaxonalarda talabalar eng qulay va xavfsiz mehnat qilishi uchun zarur sharoit bo'lishi lozim.

5. O'quv ustaxonalari hajmi va tekis ko'rsatmali qo'llanmalar, shuningdek, ta'limning texnik vositalari bilan jihozlanishi zarur.

6. Yordamchi binolar(asboblari va sklad) o'quv ustaxonasiga yaqin bo'lishi kerak.

7. Tashqaridagi tovushlar talabalarning e'tiborini ichidan alahsitadigan va mehnat jarayonini buzadigan shovqin-suronlar ustaxonaga kirmasligi lozim.

o'quv ustaxonasining maydoni 80-90 m² bo'lishi kerak.

o'quv ustaxonalari materiallar, yarim-fabrikatlar, tayyorlangan buyumlar saqlanadigan yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Bunday xonalar kuruq, yog'och poli, tabiiy va majburiy ventilyatsiyali, normal tabiiy va sun'iy (ish o'rnida 100-150 luks), yoritilgan, havosining temperaturasi qishda 14-16° S bo'lishi va yozda 20° S dan oshmasligi kerak. Yoritgich sifatida kunduzgi lampadan foydalanish kerak. Ustaxona devorlari tekis, yorqin rangga, shifti oq ranga bo'yalishi kerak. Mana bularning hammasi xonaning yorug'ligini oshiradi. Ustaxona anjomlarining turli qismlari bilan ustaxonaning umumiy fani o'rtasida to'g'ri kontrastlikni vujudga keltiradi.

Ustaxonada tovush va vibratsiyani yutuvchi moslamalarni qo'llash hamda mehnatning eng ratsional usullaridan foydalanish orqali tebranish intensivligini kamaytirib, tovush va vibratsiyani pasaytirishga erishish kerak.

Ish o'rnini qanday tashkil etiladi. Ish o'rnini deganda o'quv ustaxonasi yoki sexning alohida ishchi ixtiyorida bo'lgan va u ishlab chiqarish topshirig'ini bajarishida kerak bo'ladigan jihoz, moslama, asbob va materiallarning maqsadga muvofiq holda joylashtirilgan ma'lum qismi nazarda tutiladi. Odatda ish o'rnini quyidagilarni o'ziga qamrab oladi:

1. ishchi foydalanadigan mehnat vositalari o'rnatilgan, normal ishlash uchun zarur bo'lgan maydon;
2. ish bajariladigan jihozlari, mexanizm va moslamalar;
3. material, yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulotlar, chiqindilarni joylashtirish, saqlash uchun maxsus qurilmalar;
4. asbob-uskunalar, moslamalar va texnikaga oid hujjatlarni joylashtirish va saqlash uchun maxsus qurilmalar;
5. har bir ish o'rniga mo'ljallangan ko'tarma-transport vositalari;
6. normal va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlovchi qurilmalar.

o'quv ustaxonalari ishlab chiqarish uchun eng qulay sharoit yaratish uchun quyidagilar bo'lishi zarur:

7. havoning harorati qish paytida 15-16°S dan past bo'lmasligi, yozda esa 20°S dan oshmasligi kerak. Ustaxona binosida havo almashinishi tabiiy yoki sun'iy ravishda amalga oshiriladi.

Ustaxona poli iliq, yuzasi tozalash uchun qulay, sirpanmaydigan bo'lishi talab etiladi. Devorlar ochiq rangga, ship esa binoni yaxshiroq yoritilishi uchun oq rangga bo'yaladi.

o'quv ustaxonalari va maydonlari bilim yurtida tayyorlanadigan kasb va ixtisosliklarga ko'ra meyorlanadi. Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarining rejalashtirishda quyidagi umumiy talablarga amal qilinadi:

- o'quv ustaxonalari mashg'ulotlarni amaliy ta'lim dasturiga muvofiq o'tkazishga moslashtirilgan bo'lishi kerak;

- Har bir bo'lim maydoni va asbob-uskunolari miqdoriga ko'ra hamda egallanadigan kasb, ixtisoslikka muvofiq 25-30 yoki 12-15 nafar talabalar guruhini bir vaqtini o'zida o'qitishga mo'ljallanadi;

- o'quv ustaxonalari guruhlarni frontal o'qitishga mo'ljallangan bo'lishi kerak;

- o'quv ustaxonalarida tayyorlanadigan har bir kasb va ixtisoslikning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, alohida bo'limlar, shuningdek asboblari va materiallar saqlanadigan omborxona, mexanika bo'limi va hokozolar tashkil etiladi;

- Texnologik jarayon jihatidan bog'liq bo'lgan bo'limlarni bir-biriga yaqinroq joylashtirish zarur;

- Silliqlaydigan, jilvirlaydigan va charxlaydigan dastgohlar odatda alohida binoga o'rnatiladi. Agar buning iloji bo'lmasa, bunday dastgohlar ustiga havoni so'rib oluvchi ventilyatsiya o'rnatiladi;

- Ish jarayonida ko'p miqdorda gaz, chang yoki kuchli shovqin chiqaradigan bo'limlar to'liq izolyatsiya qilinadi;

- Ustaxonalar dasturning mazkur mavzusi o'rganilayotganda osib yoki o'rnatilib qo'yiladigan kerakli ko'rsatmali qurollar, jadvallar, o'quv ishlab chiqarish ishlarining ro'yxati bilan ta'minlanadi;

- Ustaxona devorining bir tomoniga guruh talabalariga tegishli ko'rsatgichlar o'rnatiladi;

- Ustaxonaning barchaga yaxshi ko'rinadigan joyiga birinchi yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan dori-darmon solingan aptechka va qaynatilib sovutilgan suvli bak qo'yiladi;

- Tahsil oluvchilarning ish o'rnidagi individual asbob-uskunalarini kmplekti va zarur jihozlari uchun maxsus moslamalar bo'lishi kerak;

- Ustaxonada tozalash uchun ishlatiladigan materiallar, qirindi, qipiqni yig'ishga mo'ljallangan qopqoqli yashik; ularni yig'ishtirib olish uchun xokandoz, belko'rak, ustaxonani tartibga keltirish uchun cho'tkalar bo'lishi kerak;

- Ustaxonada yong'inga qarshi zaruriy inventar bo'lishi shart;

o'quv ustaxonalar tahsil oluvchilar ishlab chiqarish ta'limi dasturi talablariga muvofiq topshiriqlarni bajarishlari uchun zarur bo'ladigan, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan individual va ommaviy foydalanishga mo'ljallangan asosiy va yordamchi o'quv-ishlab chiqarish asbob-uskunalarini bilan jihozlanadi.

o'quv ustaxonasiga jihozlarni joylashtirishda quyidagilar nazarda tutiladi:

- o'qituvchi o'z ish o'rnida turib, tahsil oluvchilar guruhiga jamoaviy yo'l-yo'riq berish imkoniyatini;

- Tahsil oluvchilarning maqbul ishlari uchun eng qulay va havfsiz sharoitni;

Ishlash, ta'mirlash vaqtida shuningdek materiallar tashishda har tomondan kelishning qulayligini faqat ishchi turadigan dastgoh orasidan o'tish joylarining kengligi 05-08 m, dastgohlar qatori orasidagitish yo'lining kengligi eng kamida 1,2 m aravacha, elektrokar va boshqa transport vositalari o'tadigan joyning kengligi 2 m dan qilib belgilanadi. O'quv ustaxonasidagi barcha turdagi jihozlarning xavfli joylar to'r, kojuxlar bilan to'sib qo'yiladi.

O'quv ustaxonasini tashkil etish va jihozlash. O'quv ustaxonalari materiallar, yarim-fabrikatlar, tayyorlangan buyumlar saqlanadigan yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Bunday xonalar quruq, yog'och poli, tabiiy va majburiy ventilyatsiyali, normal tabiiy va sun'iy (ish o'rnida 100-150 luks), yoritilgan, havosining temperaturasi qishda 14-16 ° S bo'lishi va yozda 20 S dan oshmasligi kerak. Yoritgich sifatida kunduzgi lampadan foydalanish kerak. Ustaxona devorlari tekis, yorqin rangga, shifti oq ranga bo'yalishi kerak. Mana bularning hammasi xonaning yorug'ligini oshiradi. Ustaxona anjomlarining turli qismlari bilan ustaxonaning umumiy fani o'rtasida to'g'ri kontrastlikni vujudga keltiradi.

Asbob uskuna va moslamalar. O'quv ustaxonasidagi mehnat sharoiti sanitariya-gigiena va xavfsizlik texnikasining barcha talablariga to'la javob berishi kerak. Dastursidagi barcha modellari emas, balki texnik ijodkorlikni ham o'rganish uchun zarur sharoit bilan ta'minlanishi lozim.

1. Turli buyurtmalarni bajarishda pedagogning o'rganuvchilar bilan olib boradigan umumiy gruppaviy hamda brigada-zvenoli va patakli ishlari uchun ham sharoit yaratilishi zarur.

2. Har bir talabaga kerakli asbob-uskunalar va moslamalar bilan ta'minlangan alohida ish o'rnini ajratilishi lozim.

3. Pedagog uchun tegishli jihozlar, asboblari, moslamalar bilan ta'minlangan va poldan 250-300 mm ko'tarilgan namunali ish o'rnini tashkil etilishi lozim.

4. Ustaxonalarda talabalar eng qulay va xavfsiz mehnat qilishi uchun zarur sharoit bo'lishi lozim.

5. O'quv ustaxonalari hajmi va tekis ko'rsatmali qo'llanmalar, shuningdek, ta'limning texnik vositalari bilan jihozlanishi zarur.

6. Yordamchi binolar(asboblari va sklad) o'quv ustaxonasiga yaqin bo'lishi kerak.

7. Tashqaridagi tovushlar talabalarning e'tiborini ichidan alahsitadigan va mehnat jarayonini buzadigan shovqin –suronlar ustaxonaga kirmasligi lozim.

o'quv ustaxonasining maydoni 80-90 m² bo'lishi kerak.

Sanitariya-gigiena talablari. Mehnat ta'limi fani o'quv mehnati gigienasi bilan ham bog'liq bo'lib, u o'quv ustaxonalarda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o'qitish hamda tarbiyalashning sanitariya-gigiena sharoitlarini o'rganadi. Har bir gigiena sharoiti yaratish (yorug'lik, ozodalik, ventilyatsiya), o'quvchilarning ish o'rnini to'g'ri tashkil etishga, zarur asboblardan, mehnat usullaridan foydalana bilishga o'rgatish – kasb ta'limi o'qituvchisi amalga oshirishi va hayotga tatbiq etishi lozim bo'lgan asosiy masalalardir.

Ustaxonalar uchun mo'ljallangan bino o'quv-pedagogika, sanitariya-gigiena va ishlab chiqarish, texnik talablarini qondirishi kerak.

O'quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari. O'quvustaxonalarining maydoni, mavjud loyihalarga ko'ra, 70-90 m² ni tashkil etadi. Ustaxonalar bir qavatli alohida binoga joylashgan bo'ladi. Ular ta'lim muassasasida ortiqcha shovqin bo'lmasligi uchun kollejning asosiy binosidan bir oz nariroqda quriladi.

O'quv ustaxonalari materiallar, yarim fabrikatlar, tayyor buyumlar, shuningdek asboblari va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun'iy shamollatiladigan bo'lishi meyorda tabiiy va sun'iy yoritilgan ish o'rni bo'lishi, havo temperaturasi qishda 14-16⁰ S, yoz davrida esa 20⁰S dan oshmasligi kerak. Yoritish uchun tabiiy yorug'likdan yoki sharoitga qarab kunduzgi yorug'lik lampalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quv ustaxona devorlari silliq bo'lib, yorqin bo'yoqlar bilan shiqa oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bular xonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo'yoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi obektlar bilan ustaxonaning umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi.

5-Mavzu: Texnologiya fanida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash

Reja:

- 1.Didaktikva tarqatma materiallarga qo'yiladigan talablar.
- 2.Testsavollarinitayyorlashga qo'yiladigan talablar.
3. Ko'rgazmali qurollarnitayyorlashga qo'yiladigan talablar.
4. PowerPointdasturida taqdimottayyorlash.

Tayanch iboralar: Didaktika. Tarqatma materiallar. Test savollari.Talablar.Pover point dasturi. Taqdimot

Tarqatma materiallar — ta'lim oluvchilar uchun o'rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo'lmagan (1 — 2 varaq) yozma o'quv materiali hisoblanadi. Mazkur materiallar mashg'ulotni qiziqarli qilish imkonini berib, ko'p hollarda ta'lim oluvchilar uchun mustaqil ravishda o'qib chiqib muhokama qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Tarqatma materiallarni tayyorlash va qo'llashda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

Ishchi varaqalar - guruhlarda, juft bo'lib va individual mashqlar bajarishda qo'llaniladi. Ular turli jadvallar shaklida bo'lib, ta'lim oluvchilar tomonidan to'ldirish talab qilinadi.

Nazorat varaqalari - mashg'ulot yakunida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishda qo'llanilib, ular test savollari, **masalalar va shu kabi shakllarda bo'lishi mumkin.**

Matnlar - dars mavzusi bo'yicha mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda, mashg'ulot davomida, shuningdek bilimlarni mustahkamlashda foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga taqdim etiladi.

Fan-texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi tufayli ta'lim tizimida foydalanilayotgan o'quv adabiyotlari mazmunini isloh qilish, ularni mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan,

madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan xolda qayta ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Bu o'z navbatida, ta'lim tizimi tamomila yangi mazmun kasb etayotgan ayni vaqtda, o'quv adabiyotlari mazmunini qayta taxlildan o'tkazish, shular asosida yangi avlod darsliklarini yaratish lozimligi ko'rsatildi.

Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldigi ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini qo'yimoqda.

Shuning uchun "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi" da o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, uslubiy-didaktik, psixologik-pedagogik, sanitariya-gigiena talablarni ishlab chiqish, o'quv adabiyotlaridan to'g'ri va ratsional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakatimiz miqyosida zamonaviy o'quv adabiyotlarini tayyorlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish uchun strategiya masalalarini aniqlash vazifalari ko'rsatilgan.

Shuningdek konsepsiya elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirish, bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirish, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, ular ko'proq chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratilishi maqsadga muvofiq deb ko'rsatilgan. Shuning uchun ta'lim tizimida fan va texnologiyalarning jadal rivojlanganligini e'tiborga olgan xolda, mazmuni tez o'zgaruvchan, chuqurlashtirib o'qitiladigan, umumkasbiy fanlar bo'yicha elektron o'quv adabiyotlarini tayyorlash maqsadga muvofiq.

O'quv adabiyotlari- fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturi asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan manba bo'lib, 2 xil shaklda tayyorlanadi.

1. An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari qog'ozga chop etiladigan manba.

2. Elektron o'quv adabiyotlari – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni muloqot usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manba.

Hozirgi kunda ta'lim va o'qitish jarayonlariga boshqacha yondashuv hamda e'tibor bilan qaralmoqda. Ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatidagi yaxlit jarayon bo'lib, ushbu jarayon elektron o'quv adabiyotlari – elektron darsliklar, video audio kassetalar, kompter dasturlari, televizion va radio o'quv kurslari bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu jarayonda o'qitish o'quvchining ko'proq ichki imkoniyatlari, intellektual potentsiali, axborotni qabul qilishi va o'zlashtirish xususiyatlariga bevosita bog'liq.

Elektron o'quv adabiyotlarining afzalliklaridan biri mustaqil ta'lim olishni, ijodiy fikrlashni, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish orqali o'quv materiallari va ilmiy ma'lumotlarni har tomonlama chuqur o'zlashtirishlariga mo'ljallanganligidadir. Shuningdek ushbu turdagi adabiyotlar ilmiy ma'lumotlarning jamlanganligi, ko'rgazmalarga boyligi, ya'ni turli xil

animatsiyalardan foydalanilganligi, ta'lim oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlarini hisobga olganligi jihatidan an'anaviy o'quv adabiyotlaridan afzalligini e'tiborga olgan holda ta'lim tizimida o'quv adabiyotlarning elektron versiyasini yaratishga katta ahamiyat berilmoqda.

Didaktik materiallar tayyorlash. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarni tayyorlash ham metodik ishlarga kiradi. o'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi. Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vositalarni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda mehnat ta'limi o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;

- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;

- baholash varag'i, nazorat qog'ozlari;

- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Didaktik materiallar o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish materiallardan farq qilishi mumkin. Masalan: topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo'naltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar.

Tarqatma materiallar tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va o'quvchilar uchun)

- yashil qog'ozlar: o'quvchilarga topshiriqlar

- qizil qog'ozlar: o'qituvchining metodik hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari.

Ranglarni kodlash ham hujjatlardan foydalanishni engillashtiradi. Shuningdek, bugungi kunda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda turli o'quv didaktik materiallar tayyorlash uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Ko'rsatmali qurollarni namoyish qilishdeganda o'rganilayotgan obektni ko'rsatmali-hissiy idrok etishga asoslangan kasb ta'limi metodi tushuniladi. Ko'rsatmalilik metodi o'quv materialini bayon qilish jarayonida quyidagilarni namoyish qilishni taqozo etadi:

1. Natural namunalar (tikuv mashinalari, mexanizmlar, moslamalar, andozalar, tayyor tikuv buyumlari va boshqalar).
2. Tekis va hajmdor qo'llanmalar (plakatlar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, maketlar, modellar va boshqalar).

3. Ekranli qo'llanmalar (diapozitivlar, slaydlar, o'quv kinofilmlari, elektron darsliklar).

Ko'rsatma qurollar namoyish qilinganda muayyan izchillik bo'lishiga o'quvchilar tomonidan kuzatilayotgan obektni bayon etilayotgan material mazmuni bilan bog'lashga e'tibor beriladi.

Natural namunalar namoyish qilinayotganda, agar yirik obektlar (tikuv mashinalar, tikuv buyumlari, andozalar, moslamalar)dan iborat bo'lsa, kasb ta'limi o'qituvchisi ularni ko'rsatishni bevosita ish joyida olib borishi mumkin.

Tekis va hajmdor qo'llanmalar (ular, odatda, yirikroq masshtabda beriladi)ni o'qituvchi bevosita ish joyidan turib namoyish qilishi mumkin. Hajmdor qo'llanmalarining tuzilishi soddaroq ko'rinishda bo'ladi, chunki uning ichki tuzilishi va harakat jarayoni ko'rsatilganda osonroq tushuniladi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari o'zida muhim didaktik talabni aks ettiruvchi usullar majmuasini ifodalaydi. Hozirgi davrda zamonaviy didaktika ko'rgazmali vositalarni qo'llashning eng yuqori ta'limiy, tarbiyaviy hamda shaxs sifatlarini rivojlantiruvchi variantlarini qo'llashni talab qilmoqda. U pedagoglarni ko'rgazmali vositalarni qo'llash barobarida ta'lim oluvchilarning asbtrakt tafakkurini ham rivojlantirishga yo'naltiradi.

Ko'rgazmali ta'lim metodining xususiyati uning hamma vaqt ma'lum darajadagi og'zaki metodlar bilan omuxta shaklda berilishidir. Og'zaki bayon va ko'rgazmalilikning birgalikda olib borilishiga bo'lgan ehtiyoj obektiv borliqni bilishning dialektik yo'li ijodiy mushohada, abstrakt tafakkur hamda amaliyotning birligini taqozo etishidan kelib chiqadi. I.P.Pavlovning birinchi va ikkinchi signal tizimlari to'g'risidagi ta'limoti obektiv borliqni bilishda ularni birgalikda qo'llash zaruratini ta'kidlaydi. Birinchi signal sisitemasi orqali sezish so'z bilan uyg'un ravishda uzatilishi, ikkinchi signal tizimining faol ishlashi bilan borishi lozim.

L.V.Zankov tomonidan og'zaki nutqning ko'rgazmalilik bilan bog'liq ravishda amalga oshirishning quyidagi shakllari o'rganilgan:

- o'qituvchi so'z vositasida ta'lim oluvchilarning obektni kuzatish jarayonini boshqaradi. Bevosita aks yetuvchi xususiyatlari, qiyofasi va munosabatlar to'g'risidagi xulosalar kuzatish jarayonida obektning o'zidan olinadi;

- o'qituvchi ta'lim oluvchilarning obektni kuzatish natijalari hamda ular ega bo'lgan bilimlarga tayanib, bevosita ko'rib bo'lmaydigan aloqalarni anglab etishlarini ta'minlaydi;

- obektning qiyofasi, uning bevosita ko'rish mumkin bo'lgan xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'lim oluvchilar o'qituvchining so'zlaridan bilib oladilar, ko'rgazmali vosita esa so'zlar vositasida ma'lum qilingan belgilarni aniqlashtirish va aniqlashtirishga xizmat qiladi;

- ta'lim oluvchilarning kuzatish natijalaridan kelib chiqqan holda pedagog ko'rgazma vositadagi bevosita ko'rinmaydigan aloqalar to'g'risidagi ma'lumot beradi, yoki alohida belgilarni o'zaro bog'laydi, umumlashtiradi.

Demak, og'zaki nutq va ko'rgazmalilikni o'zaro bog'liq holda amalga oshirishning turli shakllari mavjud ekan. Ularning qaysidir bittasini afzalroq deb baholash mumkin emas, zarur shaklni esa har bir mashg'ulot uchun belgilangan

vazifalar, mavzu mazmuni, mavjud ko'rgazmali vositalar xususiyatlari, shuningdek ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib belgilash lozim.

Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash.

Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish baholash bilan yakunlanadi. Mehnat mashg'ulotlarida boshqa o'quv fanlaridagidek baholashning besh balli sistemasidan foydalaniladi.

Baho mehnat jarayonining texnologiya nuqtai nazaridan tugallangan bosqichlari uchun qo'yiladi.

Operatsiya (rejalash, parmalash va xokazo) dagi xollarda esa o'tish (m: dir sirtni tirik tishli egov bilan egovlash) ana shunday bosqich hisoblanadi.

Ayrim operatsiyalarning o'rganish jarayonida baholanadi. Bunday xolda buyumni yasash uchun umumiy baho ayrim operatsiyalarni bajarish uchun qo'yilganbaholarni yig'indisidan iborat bo'ladi. Operatsiyalar ilgari tanish bulsa, bir yo'la tayyor buyumni tekshirish natijasida qo'yiladi.

Baho asosli bo'lishi, ya'ni o'qituvchi nima uchun ishga ana shu ball qo'yilganini o'quvchilarga tushuntirib berishi kerak. o'qituvchini bahoni asoslashi aslida o'quvchilar ishini taxlil qilishdan iborat bo'lib, o'quvchilarga o'z xatolarini tushuntirishda, ustaxonalardagi faoliyatlariga qo'yilgan talablarni aniqlashda yordam beradi.

Baho ob'ektiv bo'lishi zarur. Bahoga o'quvchilarning intizomi ta'sir qilmasligi kerak.

Bahoning ob'ektivligi, ayrim o'quvchilarning mehnati natijalarini taqqoslash imkonini deruvchi miqdor va sifat ko'rsatkichlari (buyumning aniqligi, buyumning miqdori va xokazolar) ga asoslanadi. Bahoning yagona talablar asosila qo'yilsa, u ob'ektiv bo'ladi.

1. Iishlash aniqligi. Aniqlik – xar qanday maxsulotni, shu jumladan mashinasozlik va yogochni qayta ishlash sanoatlari maxsulotlarini tayyorlashga qo'yilgan talablardir.

O'quv ustaxonalarida aniqlik xar dir sinf uchun alohida bo'lishi kerak.

Birinchi yarim yillikning oxirida buyumlar aniqligi oltinchi sinf uchun +1....2mm atrofida.

7 sinf uchun +0,3 dan +0,4 mm gacha (metal) va +0,5 dan +0,8 mm gacha (yogoch).

8 sinf uchun +0,1 dan +0,2 mm gacha (metal) va +0,2 dan +0,3 mm gacha (yogoch) bo'lishi lozim.

2.**Vaqt normasi.**Vaqt normasini kiritish o'quvchilarning aniqlik va boshqa texnik talablarni nazarda tutishga majbur qiladi. U Mehnat unumdorligini oshirishga, ratsionalizatorlikka o'ynaydi. Vaqt normasini belgilashda dam olish Vaqtini xam kushish kerak.

3.**O'quvchilarning bilimlari.**O'qituvchilarning amaliy ishlari ularning bilimlariga asoslanid tashkil etiladi. Shuning uchun o'quvchilar bilimlarining xajmi, qanchalik chuqur o'zlashtirilgani hisobga olinadi.

4. **Mehnat usullarini to'g'ri bajarish.** Xar dir Mehnat usullari uning ketma-ketligi shunday tashkil etiladiki eng kam Mehnat sarf etishi va yuqoriMehnat unumdorligiga erishishi lozim.

5. Ish o'rnini tashkil etish. Ish urinni tashkil etish Mehnat unumdorligiga yordam beradi. Shuning uchun bunga birinchi mashg'ulotdayok e'tidor beriladi.

6- Mavzu: Texnologiya faniga oid metodik ishlar

Reja:

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida mehnat ta'limi fani bo'yicha metodik xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish tizimi.
2. Metodik ishlarni tashkil qilish metodlari, shakllari, mazmuni va vositalari.
3. Metodik ishlarni boshqarish tizimi.

Tayanch iboralar: Metodik ishlar, metodik xizmat, pedagogik kengash, uslubiy komissiya, metodik birlashma, pedagogik o'qish, uslubiy kengash, istiqbolli reja.

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida mehnat ta'limi fani bo'yicha metodik xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish tizimi. Umumta'lim maktablarida ilmiy-metodik ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun maktab rahbari ayni vaqtda ham yaxshi pedagogik, ham kasb sirlarini yaxshi biladigan mutaxassis bo'lishi kerak. U mustaqil ravishda bilim olish va malaka oshirish kurslari orqali ilmiy-metodik ishlarning mazmuni hamda ularni tashkil etishga oid masalalarni o'rganib borishi kerak.

Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan ilmiy-metodik ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- umumta'lim maktabi pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;

- o'quvchilarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;

- ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasb va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;

- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-metodik ishlarda ishtirok etish umumta'lim maktablaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muxandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Umumta'lim maktablaridagi metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual metodik ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy metodik ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;
- uslubiy komissiyalar;
- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferensiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual metodik ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- umumta'lim maktablari rahbarlari, o'qituvchilar, va boshqa texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasb mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil metodik ishlari;

- maktab rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, o'qituvchilar, pedagoglar va boshqa texnik xodimlar bilan olib boradigan individual metodik ishlari.

Metodik ishlar shakli va mazmuni bo'yicha ham pedagogik xodimlarning turli guruhlarini qamrab olish bo'yicha ham muvofiqlashtirilgan taqdirdagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Umumta'lim maktabida metodik ishlarni umumiy mavzu asosida tashkil etish tajribasi bunday muvofiqlashtirish usullaridan biridir. Metodik ishni bunday tashkil etishning mohiyati shundan iboratki, umumta'lim maktabi ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan umumiy mavzuni tadqiq etadi. Buning natijasida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning dolzarb muammolarini hal etishga muayyan hissa qo'shadi, turli toifadagi pedagogik xodimlarning tayyorgarlik darajasi hisobga olingan holda, ularning pedagogik mahoratini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Metodik ish umumta'lim maktabining istiqbolli va joriy ish rejalarida mustaqil bo'lim sifatida rejalashtirilishi kerak. Mustaqil ishlarning tashkil etilishi va samaradorligini tekshirish masalalari umumta'lim maktablarining ichki nazorat rejalarida o'z aksini topadi.

Metodik ishlarni rejalashtirishda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

- kelajakdagi rivojlanishni ko'zda tutish (bajarish muddatlari va vazifalari bo'yicha);

- rejalarini ta'lim-tarbiya va metodik ishning ahvoli va natijalarini har tomonlama chuqur o'rganish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqish;

- rejalarining ijodiy xarakteri, ya'ni ularni bajarishda ishtirok yetuvchi xodimlarning tashabbusi va ijodkorligini namoyish etilishga zarur imkoniyat yaratish;

- metodik ishlarning jamoaviy va individual shakllarini uyg'un qo'shib olib borish;

- tezkor tekshirish mumkinligi (yozuvlar va bajarish muddatlarining aniqligi ijrochilarning ko'rsatilishi).

Metodik ish shakllari va maqsadlarining rang-barangligi, uning turli guruh va toifadagi pedagoglarni o'ziga jalb etilishini hisobga olib, tadbirlarni mazmuni va o'tkazish muddatlarini muvofiqlashtirish, bir ishning takrorlanishini bartaraf etish, uning samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaliyotda uzoq vaqtlardan beri «Metodik ishlarning umumiy rejasi» tuziladi. Bu ish pedagogik tajribada o'zini oqladi. Bunday rejada umumta'lim maktabidagi barcha metodik ishlar tizimi taqvim muddatlar va muhim tadbirlar bo'yicha uyg'unlashtiriladi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining metodik ishlar olib borishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – ularning malakasini oshirish. Bu esa ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda muhim vositadir. Bu ish o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ishlarida katta yordam beradi, ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, pedagogik va ishlab chiqarish malakasini oshiradi.

Shunga e'tibor berish kerakki, o'qituvchilarning metodik ishlari asosini ularning bu sohadagi mustaqil ishlari tashkil etadi. Bu ish muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi, muntazam olib borilishi va ta'lim-tarbiya ishlarida o'z ifodasini topishi kerak.

O'qituvchilarning metodik ishlari maktab rahbarlarining bevosita nazorati va rahbarligida olib borilishi kerak. Umumta'lim maktabida mustaqil metodik ishlar jamoaviy ishlar bilan birga olib boriladi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'zining pedagoglik mahoratini takomillashtirish ustida, o'z malakasini oshirish ustida har doim ishlashi kerak. Unga bu borada o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari ancha yordam beradi. Bu institutlarda qichqa muddatli kurslar tashkil qilinib, ularda o'qituvchilar fan va texnika sohasidagi yutuqlar, ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishadilar.

Bu kurslar hamma o'qituvchilarni qamrab ololmaydi, albatta. Shu sababli kurs tayyorgarligi bilan birga joylarda muntazam ravishda metodik ishlab olib boriladi. Odatda, ular birqancha metodik ishlarini bajarishadi. Bu esa qo'shimcha ma'suliyat yuklaydi, ularning mustaqil bilim olish borasida qunt bilan ishlab, hamkasblari uchun namuna bo'lishga majbur qiladi.

2. Metodik ishlarni tashkil qilish metodlari, shakllari, mazmuni va vositalari. O'qituvchilarga ta'lim va tarbiya berishda mehnat ta'limi o'qituvchisi yetakchi rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining ahvoli, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi o'qituvchi kasbiy malakasiga, pedagoglik mahoratiga, madaniyat darajasiga bog'liq.

Yakka tartibdagi metodik ish butun o'quv yiliga tuzilgan reja bo'yicha olib boriladi. Unda o'qituvchi muhandis-pedagog o'z pedagog mahoratlarini va o'z bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida yakka tartibdagi metodik topshiriqlar nazarda tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi: pedagogik mavzular bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash; o'quv dasturning eng qiyin mavzulari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tuzish; anchagina mehnat qilinishi talab qilinadigan muammoli izlanish ishlarini belgilaydi. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

Har bir pedagog ish rejasi to'rtta bo'limdan tashkil topishi kerak:

1. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.
2. Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish.
3. O'qitilayotgan mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
4. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish.

Bu reja metodik kengash majlisida ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi. Bu rejaning bajarilishi haqida o'qituvchilar hisobotlari yeshitilib turiladi.

G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish - materiallar ishlab chiqilayotganda hozirgi zamon hayoti va ishlab chiqarishni nazarda tutish kerak. Mehnat ta'limi o'qituvchisi yoshlarga mehnat tarbiyasi va politexnik ta'lim berishning mohiyati ancha to'la yoritilgan asarlarni, prezident qarorlarining umumiy o'rta ta'limga oid hujjatlarini o'rganishi, siyosiy seminarlar va nazariy konferensiyalar ishida

qatnashish, matbuot, radio, televidenie orqali hozirgi siyosat bilan tanishish va amaliy ishda qo'llash.

Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish- tayyorlanadigan ma'ruzalar, ko'rsatmalar, tavsiyalarda o'quvchilar bilan bo'ladigan o'quv-tarbiyaviy ishlari shaklini mukammallashtirib borish nazarda tutiladi. Mehnat ta'limi o'qituvchisining o'z ustida mustaqil ishlashi mehnat ta'limiga oid ilmiy jurnallar va asarlar bilan muntazam tanishib borishi, metodik mahoratida esa mashg'ulot olib borish sifatini takomillashtirib, bunda yangi metodik ko'rsatmalar tayyorlash, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish masalasini yechish, ilg'or pedagogik tajribalarni esa boshqa o'qituvchilar orasida yoyishga yordam berishdir.

Nazariya bo'yicha darslarga tekshirish uchun kirgan o'qituvchi darslarning taqvimiy mavzuli reja va har bir dars bo'yicha rejasi hamda dars o'tish uchun ishlanmalar borligiga; dars mavzusi bo'yicha tuzilgan reja va dasturga mos kelishiga; ta'lim vositalaridan unumli foydalanilayotganligiga; darsda o'quv tarbiyaviy ishning qo'yilishi va uning amalga oshirilishini, qo'yilgan maqsadni hal etish uchun tanlangan dars turining maqsadga muvofiq ravishda tanlanganligiga baho berish; darsning strukturasi to'g'ri tanlanganligiga, vaqtning taqsimlanishiga, o'qituvchi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligiga e'tibor berish kerak.

O'qitilayotgan mehnat yo'nalishi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish –ilg'or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o'rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma'ruzalarni yeshitib borish, ko'rgazmalarga borib turish, ilg'or korxonalarga o'tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko'nikmalar va malakalar mehnat ta'limi o'qituvchilarining malakali metodistlar rahbarligida va ishlab chiqarish ilg'orlari ishtirokida ilg'or ish usullarini egallash yo'li bilan takomillashtiriladi.

Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish – mehnat ta'limi darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o'quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta'minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta'limning eng samarali ko'rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Didaktik materiallar tayyorlash. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarni tayyorlash ham metodik ishlarga kiradi. o'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi. Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vositalarni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda mehnat ta'limi o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

-ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun yeskizlar;

- yozma topshiriqlar, yozma va ogʻzaki testlar uchun soʻrov qogʻozlari;
- baholash varagʻi, nazorat qogʻozi;
- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

oʻqituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli maʼlumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi maʼlumotlarni ham oʻz ichiga oladi. Oʻquvchilar uchun materiallar esa qoida boʻyicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni oʻz ichiga oladi.

Didaktik materiallar oʻquvchilarga moʻljallangan boʻlsa, oʻqitish materiallardan farq qilishi mumkin. Masalan: topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yoʻnaltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar.

Tarqatma materiallar tayyorlash boʻyicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

-oq qogʻozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (oʻqituvchi va oʻquvchilar uchun)

-yashil qogʻozlar: oʻquvchilarga topshiriqlar

-qizil qogʻozlar: oʻqituvchining metodik hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqlari.

Ranglarni kodlash ham hujjatlardan foydalanishni yengillashtiradi. Shuningdek, bugungi kunda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda turli oʻquv didaktik materiallar tayyorlash uchun keng imkoniyatlar mavjud.

3.Metodik ishlarni boshqarish tizimi. Oʻquv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli oʻquv muassasida metodik ishlarni boshqarishning asosiy obʼekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Umumtaʼlim maktabidagi metodik ishlarning aniq shakllarini maktab pedagogik kengashi belgilaydi. Maktab rahbari (direktor) metodik ishlarga umumiy rahbarlik qiladi. U «Metodik ishning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar oʻtkazadi, oʻqituvchilar oʻtkazadigan mashgʻulotlarni tahlil qiladi, alohida oʻqituvchilarning metodik ishlariga rahbarlik qiladi, yuqori organlar oldida oʻzi rahbarlik qilayotgan maktabdagi metodik ishlarning ahvoli toʻgʻrisida hisobot beradi.

Direktorning oʻquv ishlari boʻyicha oʻrinbosari umuman maktabdagi metodik ishlarning, shuningdek fan uyushmalarida olib boriladigan metodik ishlarning tashkilotchisi hisoblanadi.

Sinf rahbarlari bilan olib boriladigan metodik ishlarni direktorning oʻquv-tarbiyaviy ishlari boʻyicha oʻrinbosari, umumtaʼlim oʻqituvchilari bilan olib boriladigan metodik ishlarga esa ilmiy boʻlim mudiri rahbarlik qiladi.

Umumtaʼlim maktabida oʻqituvchilarning metodik ishlari jamoaviy ishlar bilan birga olib boriladi. Jamoaviy metodik ishlardan eng muhimi fanlar boʻyicha tashkil etiladigan metod birlashmalardir. Metod birlashmalarda koʻriladigan masalalar quyidagilardan iborat boʻlishi mumkin:

1) yangi oʻquv dasturi, darslik, qoʻllanma va uslubiy ishlanmalarni oʻrganish;

2) metodik yoʻriqnoma va buyruqlarni oʻrganish, ularni amalga oshirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish;

3) o'quv-ishlab chiqarish ishlarini, o'quv-texnik hujjatlarini, turli ishlar uchun vaqt me'yorlarini, o'quvchilarning ish o'rinlarini tashkil etish va jihozlash masalalarini muhokama qilish;

4) o'quv dasturi mavzularini o'rganish metodlarini muhokama qilish, tekshirish ishlarini va malakalarini belgilashni tashkil etish;

5) ochiq darslar o'tkazish va natijalarini muhokama qilish;

6) o'qituvchilarning sinflaridagi tarbiyaviy ishlari, darsdan tashqari ishlarini bajarish metodikasi;

7) o'qituvchining ta'lim-tarbiya ishlariga doir tajribalari, o'quvchilar bilan fan va texnika yutuqlarini, ilg'or mehnat qoidalarini o'rganish kabi masalalar to'g'risidagi axborotlari.

Pedagogik kengash umumta'lim maktabida ta'lim-tarbiya jarayonining jamoaviy rahbaridir. Bu kengash o'quv-uslubiy va tashkiliy-xo'jalik ishlariga rahbarlik qilishda direktorga yordam beradi; kengash o'z ishini direktor rahbarligida olib boradi. Pedagogik kengash quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

1) maktabning yarim yillik, o'quv ishlarining yakunlarini, shuningdek, malaka imtixonlari natijalarini muhokama qiladi;

2) o'qituvchilarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash tadbirlarini belgilaydi, o'qituvchilarning o'z ish tajribasi haqidagi ma'ruzalarini yeshitadi;

3) o'quv guruhlarida darslarning o'zlashtirilishi, darsga qatnashish, usta va o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlariga doir masalalarni ko'radi;

4) o'quv reja va dasturlarining bajarilishi va boshqa shu kabi masalalarni ko'radi.

o'qituvchilarning texnik va pedagogik malakalarini oshirishning jamoaviy shakllari seminar-trening, pedagogik o'qishlar va boshqa shakllari bo'lishi mumkin.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari.

1. Mehnat ta'limi o'qituvchisining metodik ishlarining individual rejasini tuzish.

2. Mehnat ta'limi yo'nalishlariga oid mavzular bo'yicha tarqatma materiallar tayyorlash (o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq variantlari asosida).

7-Mavzu: Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish

Reja:

1. Maktab sharoitida to'garaklar tashkil qilish.
2. Sinflar, maktablar, tumanlararo ko'rgazmalarni tashkil qilish metodikasi.
3. Maktabdan tashqari to'garaklarga jalb qilish.
4. Fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish.

Tayanch iboralar: Maktab. To'garak. Maktabdan va sinfdan tashqari ishlar. Fan olimpiadalari. Tanlovlar

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi - o'quv -tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini unumli o'tkazish, mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash faniga qiziqtirishdan iborat.

Sinfdan tashqari ishlarga quyidagilar kiradi.

1. To'garaklarni tashkil etish.
2. Ko'rgazmalarni tashkil etish.
3. Fan olimpiadalarini o'tkazish.

To'garak ishlarining rejalarini tuzish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida bichish-tikish to'garagi rahbarlarini tayyorlash orqali loyihalovchi rassom, tikuvchi, bichuvchi kasblariga qiziqishi bor bo'lgan o'quvchilarga yordam beriladi. Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi fanining maqsadi o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblari bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, ularda mehnatni qadrlash, mehnatga qiziqish, mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat. Mehnat ta'limi jarayonida olgan bilimlarni mustahkamlash, ularning bo'sh vaqtlarining to'g'ri, rejali o'tishini ta'minlash va tikuvchi-bichuvchi kasblarini egallashlarida to'garaklarning vazifasi katga.

Tikuvchi-bichuvchi kasbini egallash orqali qizlarimizni hayotga tayyorlashdek zarur vazifa bajariladi, chunki har bir ayol tikuvchilik sirlarini bilishi albatta kerak. Tikuvchilik kasbi eng sharaflil kasblardan biri hisoblanadi, axir hech bir sanoat yoki odam yo'qki bu kasb xizmatidan foydalanmasin. Bichish-tikishni o'rgatish uslubiyoti tikuvchi kasbi to'garagi tashkilotchisi tayyorlashda mutaxassislik fani hisoblanadi. Bu fanning asosiy maqsadi bo'lajak to'garak rahbarlariga bichish-tikish to'garagi davomida tikuvchilik kasbi sirlarini, ularni har tomonlama tarbiyalashni o'rgatishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish yo'l-yo'riqlarini o'rgatishdir. Fanning asosiy vazifasi bo'lajak to'garak rahbarlariga tikuvchilik ustaxonasining moddiy bazasi, jihozlanishi, kiyimlarni tikishda qo'llaniladigan ish turlarini bajarish va kiyimda qo'llash, yengil kiyimlarning xillari va ularni tikish jarayonlarini o'rgatishda qo'llaniladigan yo'l-yo'riqlarni o'rgatadi.

Boshqacha qilib aytganda, har bir to'garak tashkilotchisi tikuvchilik mutaxassisligi tavsifnomasida ko'rsatilgan 3—4 razryadli tikuvchi kasbi bajara oladigan ishlarni o'zi bilishi va to'garak a'zolariga o'rgata olishi zarur. Dastur nazariy va amaliy tarzda o'qitiladi. Nazariy bilimlar berishda tikuvchilik sohasida qo'lga kiritilgan yangiliklar, yangi tikuv mashinalari, ishlov berish usullari haqida ma'lumotlar va o'quvchilarga yetkazish haqida ko'rsatmalar beriladi. Amaliy ishlarni bajarishda «Mehnat ta'limi» fanidan egallagan ko'nikma va malakalariga asoslaniladi.

Ko'rgazmalarni tashkil etish.

o'quvchilar tomonidan tayyorlangan amaliy ishlarni bo'lim va sinflar kesimida ko'rgazmalar tayyorlanadi, mashg'ulot ishlanmalari, namunalari tuziladi. Dastlabki amaliy ko'rgazmalarni maktabning o'zida tashkil etiladi. So'ngra albatta bunday ko'rgazmalarni tumanlarda va shahar bosqichlarida madaniyat uylarida

yoki maktablar qoshida ochilgan to‘garaklarda o‘tkazilsa, yaxshi natija beradi.

Bo‘lajak to‘garak rahbarlari ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tuzilgan mashg‘ulotlarni kuzatishlari va tahlil yetib o‘rganishlari zarur. Olgan tajriba natijalarini o‘zlarining ish faoliyatlari davomida qo‘llashlariga e‘tibor berilishi zarur.

Mehnat ta‘limi metodikasi fanini o‘rganish natijasida talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

- bichish-tikishni o‘rgatish to‘garagi rejasini tuza olishi;
- bichish-tikish to‘garagini tashkil eta olishi;
- tikuvchilik materiallari bilan ishlay olishi;
- mashinalarni ishlata olishi;
- ayollar va bolalar kiyimlarini tika olishi;
- ayollar va bolalar tungi ko‘ylagi, xalati, belli kiyimlarni, milliy kiyimlarni tika olishi;
- kiyimlarni ta‘mirlay olishi.

Mehnat ta‘limi metodikasi fanini o‘rganish natijasida talabalar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

- to‘garak a‘zolariga tikuvchilik buyumlari turlari va ularga qo‘yiladigan talablar haqida ma‘lumot berish;
- gazlamalarning tolaviy tarkibini va xususiyatlarini tikish jarayonida hisobga olish, o‘ngi, teskarisi, bo‘yi, arqoq ip yo‘nalishlarini aniqlay olishni o‘rgatish;
- tikuvchilik buyumlarini ta‘mirlay olishni o‘rgatish;
- qo‘l ishlari uchun ish o‘rnini tashkil etish va ularni bajarishni o‘rgata olish;
- mashinada bajariladigan ish uchun ish o‘rnini tashkil etish va mashinada ish tikishni o‘rgatish;
- ayollar va bolalar kiyimlarida loyihalash va badiiy bezashni o‘rgatish;
- chaqaloq bolalar kiyimlari to‘plamlarini tikishni o‘rgatish;
- ayollar va bolalar belgi kiyimlarini bosqichma-bosqich tikishni o‘rgatish;
- bluzka, ovrupocha ko‘ylak, xalat, reglan engli ko‘ylak, milliy ko‘ylak, milliy lozim, murakkab fasonli ayollar va bolalar ko‘ylaklarini tayyorlashni o‘rgata olishi kerak.

"Bichish-tikish" to‘garagi

Maqsad va vazifasi:

Bichish-tikish to‘garagida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashini rivojlantirish kiyim shaklini va uning loyixasini xis etish qo‘l va mashina ishlarini bajara olish. Kiyim tayyor xolga keltira olishlarini o‘rgatish asosiy maqsadimiz. Kiyim tikishidan avval andoza chizish uchun asosiy o‘lchov olinadi. Shu o‘lchov asosida fasoniga qarab andaza chiziladi. Shu fasonga mos mato tanladi. Andaza yordamida bichiladi. Bichilgan detallarni qo‘l choki yordamida birlashtiriladi va o‘lchov olinadi. So‘ng mashinada tikiladi. Mashinada tikilgan kiyimga bezak berish ishlari olib boriladi.

Qizlarimiz ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlarini fasonga qarab o‘zlari mustaqil andoza tayyorlab bichib-tikadilar.

**Bichish-tikish to'garagining yillik ish
REJASI
1 yil o'quvchilar uchun**

№	Mavzular	Nazariy soat	Amaliy soat
1.	Kirish Materialchilik Qo'l choklari xaqida tushuncha Tikuv mashinasi xaqida tushuncha o'lchov olish va razmer olish xaqida tushuncha Bolalar uchun qo'l choklari Mashina choklari Bolalar uchun nagrutnik Chizish va bichish	2 2 2 2 2 2	2 2
2.	Nagrutnik bichish va tikish Bolalar uchun qalpoqchanichizmasini bichish-tikish. Bolalar uchun raspashonkani chizish-bichish Raspashonkani tikish to'r o'rnatish Bolalar uchun pannamkani bichish-tikish	2 2 2 2 4 2	2 2
3.	Aier va fartuk chizish Fartukni bichish va tikish Qizchalar trusigini chizmasini chizish o'g'il bolalar trusigini bichish va tikish Qizchalar uchun tungi ko'ylakni chizish Tungi ko'ylakni bichish - tikish Tungi ko'ylakni qishkisini tikish	2 2 2 2 2 2	2 2 2 2
4.	o'g'il bolalar shortigi chizmasini chizish Shortikni bichish va tikish o'g'il bolalar finka ko'ylagini chizish Finka ko'ylakni bichish va tikish o'g'il bolalar pijamasini chizish Pijamani bichish va tikish primerka qilish	2 2 2 2 2 2	2 2 2 2
5.	o'g'il bolalar pijama ko'ylagini chizmasini chizish. o'g'il bolalar ko'ylagini bichish qo'lda choklash Ko'ylakni engi cho'ntagi va yoqa chizmasini chizish. Ko'ylakni engini cho'ntagini yoqani o'rnatish	2 4 2 4	2 2
6.	Bog'cha yoshidagi qizchalar ko'ylagi chiz. Fas. ish Andoza qilish va fason ishlash Ko'ylakni chizmasini chizish va bichish Yeng va yoqa chizmasini chizish va bichish-tikish	4 2 2 4	2

7.	Bog'cha yoshidagi qizchalar uchun ko'ylakni chizish vabichish.	2	2
	Bog'cha yoshidagi qizchalar ko'ylagini f 1 ni bichish.	2	
	Bog'cha yoshidagi qizchalar ko'ylagini f 2ni chizmasi.	2	4
	Fason chiqarish va tikish primerkagatayyorlash.	4	
8.	Bog'cha yoshidagi qizchalar ko'ylagini f 2ni chizish.	2	4
	Bog'cha yoshidagi qizchalar ko'ylagini bichish va tikish	2	
	Bog'cha yoshidagi qizchalar ko'ylagini f 2ni chizmasi fasonni ishlash.	2	2
	Ko'ylakni bichish, fasonni ishlash, yoqa, eng chizmasini chizish va tikish.	4	2
9.	Maktab formasi f 1, 2,3 larni chizmasini chizish.	2	2
	Qo'lda choklash va tikish		
	Maktab formasi fason ishlash	2	
	Ko'ylakni engi, yoqa chizmasini chizish va bichish, qo'lda choklash	2	4
			Jami: 144 s

2 yil o'quvchilar uchun

1.	o'g'il bolalar ko'ylagi chizmasini chizish	2	
	o'g'il bolalar ko'ylagini bichish-tikish	2	2
	o'quvchilar uchun maktab for 1 ni chizmasi	2	
	Formani bichish-tikish eng chizmasini chizish-bichish.	2	2
	Formani albomga ishlash	2	
	Formani 2 ni chizmasini chizish va bichish	2	2
2.	Fason 2 ni chizmasini fason ishlash	2	2
	Fason 2ni bichish qo'lda choklash va tikish	2	4
	o'quvchi qizlar sarafanni chizish	2	2
	Sarafanni bichish va qo'lda tikish	2	2
	Etagi klyoshli sarafanni bichish-tikish	4	2
3.	Fason ishlash sarafanni tikish	2	
	Xotin-qizlar shalvarini chizish	2	
	Xotin-qizlar trusigi	2	
	Xotin-qizlar shalvarini bichish	2	4
	Erkaklar shalvarini bichish va tikish	2	4
	Primerkaga tayyorlash va tikish	2	2
4.	Fason 1 ni chizish va fason ishlash	2	
	Ko'ylakni chizish	2	
	Yeng, yoqa, cho'ntak chizish	2	
	F 1ni bichish qo'lda tikish	2	4
	Tungi ko'ylakni bichish-tikish	2	4
	F 1ni engini chizish-bichish va tikish	2	
5.	Tungi ko'ylakni chizish 1,2,3 f ni	4	4
	Fason 1ni bichish vatikish	2	2
	Yeng, yoqa, cho'ntak chizish	2	2
	Tikish to'r o'rnatish	2	
	Xotin-qizlar tungi ko'ylagini chizmasini chizish.	2	2
	Tungi ko'ylakni bichish va tikish		4
		2	
6.	Tungi ko'ylakni chizish albomga ishlash	2	
	F Zni bichish va tikish eng bichish	2	
	Xotin-qizlar ko'ylagi chizmasini chizish	2	4
	Razmer 48 asosini chizish	2	2
	Fason 3 ni chizmasi	2	4
	F 3 ni bichish va tiiksh, eng bichish		4
	Yoqa chizmasini chizish va bichish	2	2
7.	Raz, 4,5 larni chizish	2	2
	Albomga ishlash kuy R №48	2	2
	o'zbekcha ko'ylak fasonini ishlash	2	
	F 1 ni chizmasi kaketli kuy chizmasini chizish	2	2
	Kuylakni bichish va qo'lda choklash	2	2
	Yeng, yoqa chizmasi va bichish-tikish, yoqa o'rnatish.	2	2

8.	Kaketli ko'ylakni f 2ni chizmasini chizish	2	2
	F Zni chizmasini chizish	2	4
	F 2ni bichish-tikish	2	
	Yeng, yoqa chizmasini chizish, bichish-tikish	2	4
	Xalat chizmasi chizish yoqa, eng chizish	2	2
	Xalatni bichish va tikish eng o'rnatish	2	
9.	Valan yoqali ko'ylak chizmasini chizish	2	2
	Xotin-qizlar yupkasini chizish	2	2
	Kulyoshli yubkani chizmasini chizish	2	2
	Primoy yubkani chizmasini chizish	2	
	Yubkani bichish primerka qilish va tikish	4	4
	Yangi fason ishlash	2	2

8-Mavzu: Texnologiya fani dars jarayonida tarbiya

Reja:

1. Tarbiya haqida umumiy ma'lumot
2. Tarbiya to'g'risida mutafakkirlarning qarashlari
3. Barkamol avlodni tarbiyalashda mehnat va mehnat tarbiyasining o'rni
4. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslarida tarbiyalash usullari

Tayanch iboralar: tarbiya, shaxs kamoli, xulq normalari, axloqiy sifatlar, mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatkorlik vatanparvarlik, mas'uliyat, faollik, ma'naviy kamol topish, aqliy mehnat, jismoniy mehnat, ijtimoiy mehnat, maishiy mehnat, badiiy did, sifatli va sifatsiz tayyorlangan buyumni taqqoslash

1.Tarbiya haqida umumiy ma'lumot. Mustaqil o'zbekistonimizda ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qilinishi barkamol avlodni yaratishdagi dastlabki qadamlardir. Shaxs rivojlanishiga erishish har bir jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta'sir etiladi. Buning natijasida muhitdagi voqealarning to'g'ri ijobiy ta'sirini amalga oshirish imkoni tug'iladi. Muhit bera olmagan narsalar tarbiya orqali hosil qilinadi, xatto tarbiya tufayli shaxsda tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Bundan tashqari muhitning salbiy ta'siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalaydi. Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoh o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxs ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o'zgarib boradi. Shu sababli bola hayotida o'yin, o'quvchi hayotida o'qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlari katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilarning rivojlanishida o'quv jarayonlarining ahamiyati va ta'siri beqiyos kattadir. Bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkurini o'stiradi, ijodiy

qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq normalari shakllanadi. Shaxs qaysi yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, ularning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, mehnat insonning ham jismoniy, ham ma'naviy kamol topishida muhim manba hisoblanadi. Mehnat jarayonida uning ishtirokchilari bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar, o'zlarining nimaga qodir ekanliklarini ko'ratishga harakat qiladilar. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatlari tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas'uliyat, intizomlilik, faollik ortadi. Ular o'z-o'zini tarbiyalashga astoydil kirishadilar. o'z-o'zini tarbiyalashga ota-ona, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri yanada samarali bo'ladi.

Kishi tug'ilgan kundan boshlab sotsial mavjudot bo'lib qoladi. Uning xarakteri, xulq-atvori, shaxsi barcha ijtimoiy omillar yig'indisi ya'ni tevarakatdagi odamlarning unga munosabati, namuna ko'rsatishlari, mafko'ralari, o'z faoliyatida hosil qilgan tajribasi ta'sirida shakllanadi. Albatta, ijtimoiy omillar inson shaxsining har tomonlama shakllanishi samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagog bolaning muayyan rivojlanish davridagi xususiyatlari, xarakteri va fe'l-atvorini belgilovchi omillarning hammasi birgalikda ta'sir ko'rsatishini bilishi lozim.

2.Tarbiya to'g'risida mutafakkirlarning qarashlari. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llashni tashkil etishning asosiy maqsadi - o'quvchilarga faqat tegishli bilim, ko'nikma malakalarni berishdangina iborat emas, balki o'quvchilarning jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, mehnatga, ijtimoiy, shaxsiy mulkka munosabatini, jamoa va uning a'zolariga bo'lgan ijobiy munosabatlarini, badiiy didini, iqtisodiy, jismoniy, axloqiy, milliy madaniyatini tarbiyalashdan iboratdir. Ta'lim berish bilan birga tarbiyalashga katta ahamiyat berish kerakligini mutafakkirlar o'z davrida aytib o'tganlar.

Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozilgan, 1917 yilda ikkinchi bor nashr etilgan "Turkiy guliston yohud ahloq" asari XX asr boshlarida pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. "Turkiy guliston yohud ahloq" asari ahloqiy va ta'limiy asardir. Bu asarda Abdulla Avloniy o'z ijtimoiy va ahloqiy-ta'limiy qarashlarini bayon etadi.

Kaykavusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik", Nosir Xusravning "Soadatnoma", Sa'diyning "Guliston va Bo'ston", Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Mahbub-ul-qulub", Ahmad Donishning "o'g'illarga nasihat" kabi asarlari maktabda va boshqa ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarida qo'llanilmoqda.

A.Avloniy odamlarni xulq, xatti-harakat nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'ladi, biri yaxshi xulqli kishilar, ikkinchisi yomon xulqli kishilardir. Haqiqiy insoniy ahloqni o'zida barqaror qilgan yaxshi kishilar yoshlarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi va ularni mehr-shavqatli, sofdil va maqbul bo'lib tarbiyalanishi uchun zamin hozirlaydi. Ahloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda, sharaf, baland daraja beruvchi tarbiyadir. Shu bois dars jarayonida o'qituvchi avvalo o'zi shaxsiy namuna bo'lishi, kiyinishi, so'zlashishi, o'zini tutishi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'lishi kerak. Dars jarayonida mehnat topshiriqlarini bajarishda shaxsning javobgarlik, vijdonlilik kabi xislatlarini, mehnat intizomiga amal

qilgan holda jamoa bo'lib mehnat qilish malakasini, ijtimoiy mulkka g'amho'rlik munosabatini tarbiyalashdan iboratdir.

3. Barkamol avlodni tarbiyalashda mehnat va mehnat tarbiyasining o'rni.

Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni etishtirishda mehnat tarbiyasining roli va o'rni beqiyos kattadir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqdir. Shu sababli, mehnat butun moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyotning negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagina bola o'z aqlini irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi, shaxs sifatidashakllanishi mumkin. Farzandlarimiz mustaqil o'zbekistonimiz-ning bo'lg'usi quruvchilaridir. Shu sababli kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa hujjatlarda ularni mehnatga qay darajada tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Shunday ekan, mehnat farzandlarimiz uchun ham zarurat, ham burch bo'lishi, buning uchun uyda ham, ta'lim muassasasida ham mehnat qilish uchun sharoitlar yaratilishi lozim. Agar bola kichikligidan mehnat qilishga o'rgatilsa, o'yindan mehnat qilishga hech bir qiyinchiliklarsiz o'tadi. Bu jarayonda kattalarning ibрати muhim rol o'ynaydi.

Farzandlarimiz kichik yoshdan boshlab maishiy mehnat, aqliy mehnat, jismoniy mehnat va ijtimoiymehnatda ishtirok etadi. Mehnat tarbiyasida yutuqlarga erishishda yoshlarni mehnatga ham ruhan, ham amaliy jihatdan tayyorlash lozim. Shuning uchun ularning yoshi va imkoniyatlariga mos mehnat turlarini bajarishga jalb qilmoq lozim.

Mehnatga psixologik, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatkorlik kabi axloqiy irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi, o'quvchilarda jamoatchilik bilan birga mehnat qilish ko'nikmalarini hosil qilish lozim. Chunki inson butun hayoti davomida ko'pchilik bilan mehnat qiladi. Bu jarayonda o'quvchida mehnat qilish madaniyatini o'stirmoq darkor.

Yoshlar mehnati dastlab oilada, keyin esata'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu jarayonda ayniqsa akademik litsey kasb-hunar kollejarini o'rni va ahamiyati beqiyos kattadir. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 13 - moddasida ta'kidlanganidek, "kasb-hunar kollej o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorati va malakasini chuqur rivojlantirishni tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishini ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb -hunar o'quv yurtidir."

Yoshlar mehnatining mazmuni mamlakat oldida turgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vazifalar, viloyat va tumanlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quv yurtlarining ichki imkoniyatlari va talablari asosida belgilanadi.

4. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslarida tarbiyalash usullari. O'quvchilarni tarbiyalashning bir qator qonun-qoidasi bor:

1. Jamoa bo'lib mehnat qilish, topshirilgan ishga javobgarlik xissini tarbiyalash.

